

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO‘JALIKLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O‘RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Satova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	



KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Latipova Shaxnoza Maxmudovna
SamISI “Moliya” kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ilmiy maqolada korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot ishida investitsiya qarorlarini qabul qilishda kapital byudjetlashtirishning o‘rni, uning samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy sharoitdagi muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, korporativ korxonalar faoliyatida investitsiya loyihalarini baholash usullari, jumladan, diskontlangan pul oqimlari (NPV, IRR) asosida qaror qabul qilish mexanizmlari o‘rganilgan. Ishda kapitalni byudjetlashtirish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: byudjetlashtirish, kapitalni byudjetlashtirish, sof joriy qiymat, kapital qiymati, ichki daromadlilik me‘yori, rejalashtirish.

Abstract. This scientific article examines the theoretical and methodological foundations and practical aspects of capital budgeting in corporate enterprises. The study analyzes the role of capital budgeting in investment decision-making, its importance in improving efficiency, as well as the challenges in modern conditions. In addition, methods for evaluating investment projects in corporate activities are explored, particularly decision-making mechanisms based on discounted cash flows (NPV, IRR). The paper develops scientific proposals and practical recommendations for improving the capital budgeting process.

Keywords: budgeting, capital budgeting, net present value, cost of capital, internal rate of return, planning.

Аннотация. В данной научной статье освещены теоретико-методологические основы и практические аспекты процесса бюджетирования капитала в корпоративных предприятиях. В работе проанализирована роль бюджетирования капитала в принятии инвестиционных решений, его значение для повышения эффективности, а также существующие проблемы в современных условиях. Кроме того, рассмотрены методы оценки инвестиционных проектов в деятельности корпоративных предприятий, в частности механизмы принятия решений на основе дисконтированных денежных потоков (NPV, IRR). В статье разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию процесса бюджетирования капитала.

Ключевые слова: бюджетирование, бюджетирование капитала, чистая приведённая стоимость, стоимость капитала, внутренняя норма доходности, планирование.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korporativ korxonalarining barqaror rivojlanishi investitsiya qarorlarining to‘g‘ri qabul qilinishiga bevosita bog‘liq. Kapitalni byudjetlashtirish jarayoni korxonalarda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya kiritish bo‘yicha strategik qarorlarni qabul qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalarda investitsiya qarorlarini qabul qilishda an‘anaviy usullardan foydalanilsa-da, ular har doim ham bozor noaniqligi, inflyatsiya va risk omillarini to‘liq hisobga olmaydi. Bu esa noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga hamda moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Kapitalni byudjetlashtirish sohasidagi bilimlar moliyaviy tahlilchilar (analitiklar) uchun bir nechta sabablarga ko‘ra fundamental ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, kapitalni byudjetlashtirish korporativ tuzilmalar uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Kapital qo‘yilmalar (investitsiya loyihalari) balansning uzoq muddatli (aylanmadan tashqari) aktivlarini shakllantiradi va ularning ahamiyati shunchalik yuqoriki, ularni to‘g‘ri byudjetlashtirish ko‘plab korporativ tuzilmalarning kelajagini belgilab beradi. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni katta xarajatlarsiz bekor qilish imkoni mavjud emas, shu sababli byudjetlashtirishdagi xatolar juda qimmatga tushadi. Real kapital qo‘yilmalar

korxonada faoliyatini aylanma kapital yoki kapital tuzilishiga nisbatan aniqroq ifodalaydi, chunki kapital tarkibi ko'p hollarda nomoddiy aktivlardan ham shakllanishi mumkin va bu aksariyat korporativ tuzilmalar uchun o'xshash xususiyatga ega.

Ikkinchidan, kapitalni byudjetlashtirish prinsiplari boshqa ko'plab korporativ qararlarga ham tatbiq etiladi. Jumladan, aylanma kapitalga investitsiyalar kiritish, ijara munosabatlari, korxonalarni birlashtirish yoki qo'shib olish, shuningdek, obligatsiyalarni qayta moliyalashtirish kabi qarorlar ushbu prinsiplarga asoslanadi.

Uchinchidan, kapitalni byudjetlashtirish jarayonida qo'llaniladigan baholash tamoyillari qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish hamda investitsion portfelni boshqarishda qo'llaniladigan yondashuvlarga o'xshashdir. Bozor tahlilchilari va portfel menejerlari tomonidan qo'llaniladigan ko'plab usullar aynan kapitalni byudjetlashtirish usullariga asoslanadi. Shu bilan birga, bozor tahlili va portfel boshqaruvida qo'llanilayotgan ayrim innovatsion yondashuvlar ham kapitalni byudjetlashtirish jarayoniga moslashtirilmoqda.

Nihoyat, moliyaviy tahlilchilar korporativ tuzilmalardan tashqarida faoliyat yuritsalar-da, ularning asosiy e'tibori korxonada qiymatini baholashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon kapitalni byudjetlashtirish orqali aksiyadorlik qiymatini maksimal darajada oshirish maqsadi bilan uzviy bog'liqdir.

Shu sababli, korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirish jarayonini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapitalni byudjetlashtirish korporativ moliyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, u korxonaning strategik maqsadlariga mos keluvchi uzoq muddatli investitsiya loyihalarini baholash va tanlashni o'z ichiga oladi. Bunday investitsiyalar yangi uskunalarni xarid qilish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini kengaytirish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish hamda yangi bozorlarga chiqish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shu sababli ushbu mavzu bugungi kunga qadar olimlar tomonidan muhim tadqiqot obyekti sifatida o'rganib kelinmoqda.

Aksariyat hollarda olimlar asosiy e'tiborni "byudjetlashtirish" tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga qaratganlar. Jumladan, rus iqtisodchilari M.A. Eskindarova va M.A. Fedotova tomonidan byudjetlashtirish moliyaviy rejalashtirishning asosiy usuli sifatida talqin etilib, ushbu atama kelgusi davr uchun asosiy yo'nalishlar, faoliyatning funksional sohalari va bo'linmalar bo'yicha reja topshiriqlarini ishlab chiqish jarayonini anglatishi qayd etilgan [1].

L.V. Yureva byudjetlashtirishni korxonada moliyaviy faoliyatini boshqarish usuli sifatida izohlab, uni amaldagi faoliyat to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar hamda prognoz axborotlari asosida byudjet tuzish, uni mulkdorlar tomonidan ko'rib chiqish va kelishish, ijrosini nazorat qilish hamda haqiqiy natijalarning byudjet ko'rsatkichlaridan farqlarini tahlil qilish jarayoni sifatida talqin etadi. Shu tariqa, byudjetlashtirish davriy va uzluksiz jarayon ekanligi ta'kidlanadi [2].

L.M. Borisova va A.A. Ivanovlar tomonidan esa byudjetlashtirish korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim tashkiliy omil sifatida baholangan [3].

P.P. Peterson va F.J. Fabozzi kapitalni byudjetlashtirishni "bir yildan ortiq muddat davomida foyda keltirishi kutilayotgan uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalarni aniqlash va tanlash jarayoni" sifatida ta'rifiyladilar. Ularning fikricha, korxonada doimiy ravishda ehtimoliy investitsiyalarni baholab borishi zarur bo'lganligi sababli, kapitalni byudjetlashtirish uzluksiz jarayon hisoblanadi [4]. Ko'rinib turibdiki, mazkur olimlar kapitalni byudjetlashtirishni uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish va ulardan daromad olish bilan uzviy bog'laydilar.

Mahalliy olimlarning byudjetlashtirishga oid qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, B.K. Tuxliyev byudjetlashtirishni korxonada darajasida qabul qilingan moliyaviy strategiya doirasida rejalashtirish, hisob va nazoratning yagona tizimi sifatida izohlaydi [5]. Biroq ushbu yondashuvda kapitalni byudjetlashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan.

D. Muxiddinovaning ilmiy ishlarida kapitalni byudjetlashtirish aksiyadorlik jamiyatlarida moliyalashtirish manbalarini tanlash jarayonini asoslashda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi [6].

Sh.S. Oltayev esa kapitalni byudjetlashtirishni "kompaniyalar tomonidan kapital loyihalarga, ya'ni amalga oshirish muddati bir yil yoki undan ortiq bo'lgan loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilish uchun foydalaniladigan jarayon" sifatida ta'rifiylaydi [7].

Olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, milliy moliya tizimida kapitalni byudjetlashtirishning iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati yetarli darajada chuqur yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirish jarayonini takomillashtirish masalalarini o'rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslangan bo'lib, ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlari qo'llanildi.



Tadqiqot jarayonida avvalo, kapitalni byudjetlashtirishning nazariy asoslarini o'rganish maqsadida tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, mavjud yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy moliyaviy usullar — diskontlangan pul oqimlari (NPV, IRR, PP/DPP) asosida iqtisodiy samaradorlikni aniqlash metodlari qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonining amaliy jihatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida kapitalni byudjetlashtirish jarayonining bosqichlari (loyihalarni aniqlash, baholash, tanlash va monitoring) o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv sharoitida investitsiya qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilishda mantiqiy tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Bundan tashqari, kapitalni byudjetlashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda statistik va analitik yondashuvlardan foydalanilib, mavjud muammolar va ularning sabablari tizimli ravishda o'rganildi.


Natijada, tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar asosida korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, kapitalni byudjetlashtirish — bu kelajakdagi pul oqimlari va risklarni tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini asoslash, baholash va tanlashga qaratilgan tizim bo'lib, u korporativ korxonada qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Kapitalni byudjetlashtirishga oid ma'lumotlar odatda korporativ tuzilma doirasidan tashqarida mavjud bo'lmaganligi sababli, moliyaviy tahlilchilar, ayniqsa murakkab bo'lmagan korporativ tuzilmalarda, byudjetlashtirish jarayonini baholashga intiladilar. Shuningdek, tahlilchilar kapitalni byudjetlashtirish jarayonining sifatini ham baholaydilar, ya'ni u korporativ tuzilmaning moliyaviy hisob maqsadlariga asoslanganmi yoki iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilganligini aniqlaydilar.

Kapitalni byudjetlashtirish korxonalar tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni bo'lib, u odatda to'rt bosqichni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Kapitalni byudjetlashtirish bosqichlari

Birinchi bosqichda korxonaning strategik maqsadlariga mos keluvchi istiqbolli investitsiya loyihalari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda turli moliyaviy ko'rsatkichlar yordamida investitsiya bilan bog'liq xarajatlardan kutilayotgan foyda tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda risk va xarajatlarga nisbatan eng yuqori samara beruvchi loyihalar saralab olinadi. To'rtinchi, ya'ni yakuniy bosqichda esa tanlangan loyihalarning samarali amalga oshirilishi ta'minlanadi hamda ularning ijrosi doimiy ravishda monitoring qilinadi.

Korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirishni amalga oshirishda qo'llaniladigan bir qator muhim ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular orasida sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik me'yori (IRR) hamda o'zini qoplash muddati (PP/DPP) alohida ahamiyatga ega.

Sof joriy qiymat (NPV) — bu ma'lum vaqt oralig'ida kelib tushadigan pul oqimlarining joriy qiymati bilan pul chiqimlarining joriy qiymati o'rtasidagi farqni ifodalovchi ko'rsatkichdir. NPV investitsiya loyihalasining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Uni aniqlash formulasi quyidagicha:

$$NPV = \sum_{n=1}^t \frac{CF_n}{(1+r)^n} - I_0$$

Bu yerda:

- CF_n — n-yildagi pul tushumlari;
- r — diskontlash stavkasi;
- I_0 — investitsiya loyihasiga kiritilgan dastlabki investitsiya miqdori;
- n — loyiha davri.

Agar NPV musbat bo'lsa, diskontlangan kutilayotgan daromadlar investitsiya xarajatlaridan yuqori ekanini anglatadi va bunday loyiha iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ichki daromadlilik me'yori (IRR) — bu shunday diskont stavkasiki, unda investitsiya loyihasining sof joriy qiymati nolga teng bo'ladi. IRR investitsiyaning kutilayotgan daromadlilik darajasini ifodalaydi va quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$IRR = r_1 + \frac{NPV_1}{NPV_1 - NPV_2} (r_2 - r_1)$$

Bu yerda:

r_1 - birinchi (pastroq) diskont stavkasi bo'lib, ushbu stavkada hisoblangan NPV_1 musbat qiymatga ega bo'lishi shart. Bu stavkada loyiha samarali hisoblanadi.

r_2 - ikkinchi (yuqoriroq) diskont stavkasi bo'lib, ushbu stavkada hisoblangan NPV_2 manfiy qiymatga ega bo'lishi kerak. Bu stavkada loyiha samarasiz hisoblanadi.

NPV_1 - diskont stavkasi r_1 bo'lgan holda hisoblangan sof joriy qiymat. U musbat bo'lishi kerak, ya'ni loyiha joriy qiymatdagi daromdlari xarajatlardan yuqori ekanini ko'rsatadi.

NPV_2 - diskont stavkasi r_2 bo'lgan holda hisoblangan sof joriy qiymat. U manfiy qiymatga ega bo'ladi va yuqori stavka qo'llanilganda loyiha iqtisodiy jihatdan maqbul emasligini ifodalaydi.


Agar IRR korxonaning talab etilgan daromad me'yoridan (daromadlilik stavkasidan) yuqori bo'lsa, investitsiya maqbul deb hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich bir nechta investitsion loyihani o'zaro taqqoslashda keng qo'llaniladi.

O'zini qoplash muddati – bu investitsiya loyihasi natijasida olinadigan sof pul tushumlari hisobiga boshlang'ich Sarmoyaning to'liq qoplanishi uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'ini anglatib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$DPP = \sum_{n=1}^t \frac{CF_n}{(1+r)^n} \geq I_0$$

Ushbu ko'rsatkich investitsiyaning qaysi muddatda o'zini qoplashini baholashga xizmat qiladi. Biroq uning asosiy kamchiligi shundaki, u pulning vaqt qiymatini hamda o'zini qoplash muddatidan keyingi pul oqimlarini inobatga olmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, kapitalni byudjetlashtirish bir qator sabablarga ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).



2-rasm. Korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirishning ahamiyati



Kapitalni byudjetlashtirish nisbatan murakkab jarayon bo'lib, u bir qator tartib-taomillarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon bir nechta fundamental tamoyillarga asoslanadi.

Ushbu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy qarorlarni pul oqimlari asosida qabul qilish;
2. Pul oqimlari muddatining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish;
3. Pul oqimlarini muqobil qiymat (imkoniyatlar narxi) asosida baholash;
4. Pul oqimlarini soliqlar to'langanidan keyingi asosda tahlil qilish;
5. Moliyalashtirish xarajatlarini alohida hisobga olmaslik;
6. Kapitalni byudjetlashtirishda pul oqimlari buxgalteriya sof foydasiga teng emasligini e'tiborga olish.

Shuni ta'kidlash lozimki, beshinchi tamoyilda pul oqimlarini diskontlashda qo'llaniladigan stavka "talab etiladigan daromadlilik me'yori" sifatida qaraladi. Talab etiladigan daromadlilik me'yori — bu investorlar loyiha risk darajasini hisobga olgan holda talab qiladigan diskont stavkasi hisoblanadi. Ushbu stavka ko'pincha "investitsiyalarning muqobil qiymati" (opportunity cost of funds) yoki "kapital qiymati" (cost of capital) deb ataladi.

Agar korxonada boshqa loyihalarga investitsiya kiritish orqali rrr darajasida daromad olishi yoki mavjud moliyalashtirish manbalarini qoplash orqali rrr miqdorida xarajatlarni tejashi mumkin bo'lsa, ushbu rrr ko'rsatkichi korxonada kapitalining muqobil qiymati sifatida qaraladi. Agar korxonada muqobil qiymatdan yuqori daromadga erisha olmasa, bunday investitsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, agar investitsiya moliyalashtirish qiymatini qoplamasa, u rad etilishi lozim.

Mazkur tushuncha keng ma'noda "kapital qiymati" konsepsiyasi sifatida ham e'tirof etiladi. Nomlanishidan qat'i nazar, iqtisodiy jihatdan asoslangan diskont stavkasi kapitalni byudjetlashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kapitalni byudjetlashtirish tamoyillari nisbatan sodda ko'rinsa-da, amaliyotda ularni noto'g'ri qo'llash samarasiz qarorlarga olib kelishi mumkin.

Kapitalni byudjetlashtirish jarayoni yirik va uzoq muddatli investitsiya loyihalarini (uskunalar, texnologiyalar, yangi aktivlar) baholash, tanlash va boshqarishga qaratilgan strategik sikl bo'lib, u maqsadlarni shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ish va prognoz qilish, qaror qabul qilish, loyihalarni amalga oshirish hamda ularning samaradorligini baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur jarayon korxonaning o'sishi va daromadlilikini ta'minlashga xizmat qiladi, resurslarni samarali taqsimlash, risklarni minimallashtirish hamda investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini aniqlash imkonini beradi.

Kapitalni byudjetlashtirishda qo'llaniladigan maxsus tartib-taomillar menejerning korxonada ichidagi boshqaruv darajasiga, loyihani baholash hajmi va murakkabligiga, shuningdek korxonaning o'lchamiga bog'liq bo'ladi.

Kapitalni byudjetlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich: G'oyalarni shakllantirish.

Investitsiya g'oyalari korxonada ichidagi turli darajalardan — yuqoridan yoki quyi bo'g'inlardan, turli bo'limlar va funksional tuzilmalardan, shuningdek tashqi manbalardan kelib chiqishi mumkin. Samarali investitsiya g'oyalarni shakllantirish kapitalni byudjetlashtirish jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

2-bosqich: Alohida takliflarni tahlil qilish.

Ushbu bosqich har bir loyiha bo'yicha pul oqimlarini prognoz qilish uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish hamda loyihalarning rentabelligini baholashni o'z ichiga oladi.

3-bosqich: Byudjetni rejalashtirish.

Korxonada rentabelli investitsiya takliflarini yagona, o'zaro muvofiqlashtirilgan dasturga birlashtirishi lozim. Mazkur dastur korxonaning umumiy strategiyasiga mos bo'lishi va loyihalarni amalga oshirish muddatlarini hisobga olishi zarur. Ayrim loyihalarda alohida holda jozibador ko'rinsa-da, strategik jihatdan maqbul bo'lmasligi mumkin. Shu bois, moliyaviy va real resurslar cheklangan sharoitda loyihalarni rejalashtirish va ustuvorlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

4-bosqich: Monitoring va keyingi audit (nazorat).

Kapital loyihalari bo'yicha keyingi audit jarayonida haqiqiy natijalar rejalashtirilgan yoki prognoz qilingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi hamda aniqlangan tafvutlar izohlanadi. Xususan, investitsiyalarni amalga oshirish natijasida olingan daromadlar, xarajatlar va pul oqimlarining rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga qanchalik mos kelayotgani tahlil qilinadi.

Kapital loyihalari ijrosini audit qilish quyidagi sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega:

- birinchiidan, u kapitalni byudjetlashtirish jarayonining asosini tashkil etuvchi prognozlar va tahlillarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, ortiqcha optimistik prognozlar kabi tizimli xatolar aniqlanadi;
- ikkinchiidan, biznes yuritish sifatini oshiradi. Agar sotuvlar yoki xarajatlar byudjet ko'rsatkichlariga mos kelmasa, audit jarayoni e'tiborni muammoli jihatlarga qaratadi va ularni bartaraf etish imkonini beradi;



• uchinchidan, kapital qo'yilmalar bo'yicha monitoring va nazorat kelgusi investitsiyalar yuzasidan asosli xulosalar chiqarishga yordam beradi. Natijada menejerlar daromadli yo'nalishlarga investitsiyalarni oshirish, samarasiz yo'nalishlarda esa ularni qisqartirish yoki to'xtatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kapital investitsiyalarni rejalashtirish murakkab jarayon bo'lib, unda korxonada va tashqarisida faoliyat yurituvchi ko'plab subyektlar ishtirok etadi. Jumladan, marketing, ilmiy-texnik (fan va muhandislik), davlat tomonidan tartibga solish, huquqiy masalalar, soliqqa tortish, moliya, ishlab chiqarish hamda xulq-atvor omillariga oid axborotlar tizimli ravishda yig'ilishi va baholanishi lozim.

Kapital investitsiyalar bo'yicha qaror qabul qiluvchi organ loyihaning hajmi va murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Quyi bo'g'in menejrlari muayyan moliyaviy limitlar doirasida yoki belgilangan investitsiya byudjetidan oshmaydigan qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'lishi mumkin.

Katta hajmli va murakkab qarorlar yuqori rahbariyat tomonidan qabul qilinadi, ayrim juda yirik investitsiya qarorlari esa aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradi.

Moliyaviy rejalashtirishning boshqa turlari kabi, kapitalni byudjetlashtirish ham foyda va xarajatlarni taqqoslash tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni investitsiya qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishdan olinadigan foyda kapitalni byudjetlashtirish bilan bog'liq xarajatlardan ustun bo'lishi lozim.

Korporativ korxonalarda kapitalni byudjetlashtirish loyihalarini tahlil qilish maqsadida ularni bir nechta umumlashtirilgan toifalarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tasnif quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Aktivlarni almashtirish loyihalari.

Bu kapitalni byudjetlashtirish qarorlarining eng sodda turlaridan biri hisoblanadi. Agar uskunaning bir qismi ishdan chiqsa yoki jismonan eskirsa, uni almashtirish zarurati, odatda, chuqur tahlilni talab etmaydi. Agar xarajatlar katta bo'lmasa va investitsiyadan voz kechish ishlab chiqarish yoki sotuvlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday qarorni ortiqcha tahlil qilish resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Bunday holatda uskunani oddiy tarzda almashtirish yetarli hisoblanadi.

Shu bilan birga, ayrim almashtirish qarorlari mavjud uskunani yangi, samaraliroq uskunalar bilan almashtirish yoki bir nechta variantlar orasidan tanlov qilishni ham o'z ichiga oladi. Bunday hollarda qarorlar, odatda, batafsil tahlil qilinadi va bu yakuniy qarorning asoslanganligini ta'minlaydi.

2. Faoliyatni kengaytirish loyihalari.

Korxonaning mavjud faoliyatini davom ettirish bilan birga, uni kengaytirishga qaratilgan investitsiyalar ushbu toifaga kiradi. Bunday loyihalar biznes hajmini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu turdagi qarorlar aktivlarni almashtirishga nisbatan yuqoriroq noaniqlik darajasiga ega bo'lib, yanada chuqur va puxta tahlilni talab etadi.

3. Yangi mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu turdagi investitsiyalar korxonani yanada yuqori darajadagi noaniqlik sharoitiga olib kiradi. Bunday loyihalar murakkabligi bilan ajralib turadi va qaror qabul qilish jarayonida ko'proq ishtirokchilarni jalb etishni talab qiladi.

4. Tartibga solish, xavfsizlik va ekologik loyihalar.

Mazkur loyihalar, asosan, davlat nazorat organlari, sug'urta tashkilotlari yoki boshqa tashqi institutlar talablari asosida amalga oshiriladi. Ular har doim ham to'g'ridan-to'g'ri foyda yoki daromad keltirmasligi mumkin hamda korxonada tomonidan iqtisodiy manfaatni maksimal darajada oshirish maqsadida emas, balki majburiy talab sifatida bajariladi.

Ko'p hollarda korxonalar bunday investitsiyalarni amalga oshirib, faoliyatini davom ettiradi. Biroq ayrim holatlarda tartibga solish, xavfsizlik yoki ekologik talablar bilan bog'liq loyihalarning qiymati juda yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa korxonani ayrim faoliyat yo'nalishlarini to'xtatishga yoki butunlay yopishga majbur qilishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

5. Boshqa loyihalar.

Yuqorida keltirilgan loyihalarning aksariyati kapitalni byudjetlashtirish tahliliga mos keladi va ularni sof joriy qiymat (NPV) yoki boshqa mezonlar asosida qabul qilish yoki rad etish mumkin.

Biroq ayrim loyihalar an'anaviy moliyaviy tahlil usullariga to'liq mos kelmasligi mumkin. Bular qatoriga korxonada ichidagi alohida manfaatlar bilan bog'liq loyihalar (masalan, bosh direktor tomonidan shaxsiy samolyot sotib olinishi) yoki risk darajasi juda yuqori bo'lgan, an'anaviy usullar bilan baholash qiyin bo'lgan loyihalar (masalan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, mamlakatimiz moliya sektoridagi ko'plab korxonalarda, xususan korporativ tuzilmalarda kapitalni byudjetlashtirish usullaridan foydalanish bo'yicha alohida (yozma) qoidalar yetarli darajada shakllanmagan. Shuningdek, aksariyat korxonalarda uzoq muddatli investitsiyalar bilan tizimli shug'ullanuvchi doimiy shtat xodimlari ham mavjud emas. Shu bois, korporativ korxonalarda yuqori boshqaruv organlari investitsiyalarni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqishi, investitsiya tahlili yo'nalishiga malakali



doimiy xodimlarni jalb etishi hamda ularni kapital xarajatlariga oid siyosat va tartiblarni ishlab chiqish va muntazam qayta ko'rib chiqish jarayonlariga faol jalb etishi zarur.

Investitsiyalarni baholashning turli usullarini qo'llash korporativ korxonada muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, agar korxonada diskontlash usullarini qo'llash imkoniyati cheklangan bo'lsa, kamida uzoq muddatli investitsiyalarni baholashning an'anaviy usullarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, ma'lumki, Markaziy bank moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi, jumladan minimal kapital darajasi, foiz stavkalari va valyuta kurslariga oid asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Boshqacha aytganda, moliyaviy institutlar faoliyati sezilarli darajada Markaziy bankning tartibga soluvchi me'yorlariga tayanadi.

Biroq yaqin istiqbolda, ayniqsa korporativ korxonalar faoliyati xalqaro bozorlar uchun yanada ochiq bo'lib borayotgan sharoitda, raqobatning kuchayishi kutiladi. Chunki xalqaro kompaniyalar investitsiyalarni baholashning zamonaviy usullaridan keng foydalanadi. Shu bois, mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlarga kapitalni byudjetlashtirish usullarini joriy etishda metodik va institutsional ko'mak berilishi maqsadga muvofiqdir.

Chunki ayrim investitsiya qarorlari nafaqat korxonada manfaatlariga, balki davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlariga ham mos ravishda qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Корпоративные финансы: учебник / коллектив авторов; под ред. М. А. Эскиндарова, М. А. Федотовой. — М.: КНОРУС, 2016. — 480 с.
2. Юрьева Л. В., Дружина Т. А. Бюджетирование как метод управления финансовой деятельностью производственного предприятия // Актуальные вопросы учетно-аналитической и контрольной системы современных предприятий. — 2024. — URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/137777/1/978-5-91256-667-7_2024_030.pdf
3. Борисова Л. М., Иванилова А. А. Бюджетирование как организационный фактор повышения ресурсоэффективности на предприятии // Вестник науки Сибири. — 2012. — № 2(3).
4. Peterson, P. P., & Fabozzi, F. J. Capital Budgeting: Theory and Practice. — New York: John Wiley & Sons, 2002.
5. Тухлиев Б. К. Молиявий менежмент: ўқув қўлланма. — Т.: 2006. — 194 бет.
6. Muxitdinova, D. O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2025-yil — iyun — № 6-son.
7. Олтаев Ш. С. Акциядорлик жамиятларида капитални бюджетлаштириш амалиётини ривожлантиришнинг инновацион йўллари // Образование и наука в XXI веке. — 2025. — № 68-4 (2-жилд).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100